



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI.

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedra o'qituvchisi:

Azamova Sitora Aynonovna

Saidova Nigora Bohodir qizi

*Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Hozirgi kunda eng global muammolardan biri bu korrupsiya hisoblanadi. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurash va poraxo'rlikni olish choralari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi kurash, firibgarlik, tovlamachilik jinoyatlar.

Korrupsiya masalalari bu dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy global muammolaridan biri. Bu muammo har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga putur yetkazadigan salbiy illat hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining eng muhim muammolari qatoridan joy oldi. Korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlariga tovlamachilik firibgarlik poraxo'rlik kabi jinoyatlar kiradi. Keyingi yillarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan korrupsiya illati yillar davomida tomonidan tomir otganligi to'g'risida o'zining chiqish va maruzalarida korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masala ekanligini takror-takror qayd etib kelmoqda. Shu bois ham davlatimiz rahbari o'zining saylov oldi



maruzlarining birida ushbu muammoga alohida e'tibor qaratib bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifalarimiz mamlakatimiz rivojiga to'siq bulayotgan yovuz illat ya'ni korrupsiya uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikni oldini olish masalalari samarali hal etishdan iborat deb ta'kidlagan edi. Korrupsiya-bu jamiyatni turli yo'llar iskanjasiga olib boradigan yo'l hisoblanadi. U insonning huquqlari jinoyatchilik, tovlamachilik va poraxo'rlik kabi jinoyatlarni keltirib chiqaradi. Insonlar pul evaziga nimalar qilishmaydi. Lekin bu oxiri yomonlik bilan tugashini hech ham tushunishmaydi. Korrupsiyaga qo'l urgan insonlar hamma narsani pul bilan yechimini topishini o'ylaydi. Zero hamma narsa pul bilan o'lchanmaslikni bilib tursa ham. Kundalik korrupsiya oddiy fuqarolar va mansabdor fuqarolar va mansabdor shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Unda fuqarolarning turli xil sovg'alari amaldorlarga va uning oila a'zolariga xizmatlari kiradi. Ushbu toifaga nepotizm kiradi. Biznes korrupsiya hukumat va o'zaro aloqada kelganda yuzaga keladi. Masalan biznes mojarosida tomonlar o'z foydasiga qaror chiqarish uchun sudyaning yordamiga murojat qilishlari mumkin. Korrupsiya nafaqat yashirin balki, kelishuv tabiatiga ham ega. U odatda shikoyatga o'rin qoldirmay, zero ikkala aybdor tomon ham mazkur noqonuniy kelishuvchan yaxshigina foyda oladi. Korrupsiyada doim kamida ikki tomon ishtirok etadi bunda bir tomondan noqonuniy yo'l bilan boylik orttirayotgan o'zi yoki uchinchi shaxs va boshqa tomondan mansabdor shaxslari aktiv yoki passiv usulda uning manfaatini ko'zlayotgan qaror qabul qilinishini kutayotgan shaxs korrupsiya xatti-harakatlari odatda shirin bo'lib bu ularni aniqlash va yozishini qiyinlashtiradi. Korrupsiya faoliyati to'grisida ko'pincha xabar berilmaydi chunki to'lash kerak bo'lganda qasos olishinishidan yoki biron bir darajada jinoyat uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olishlari mumkinligidan qo'rqishadi. Kundalik hayotda bugungi kunda o'zimizning hurmatimiz, e'tiborimizni bildirish uchun o'qituvchi yoki shifokorlarga o'z ixtiyorimiz bilan



kichik, tuhfarlar berishimiz bu ham bir korrupsion holatga kiradi. Misol uchun Sudya va advokat ishdan tashqari paytda istasa choyxonada o'tira oladi. Ayrim davlatlar borki, Sudya va advokatlarning iliq munosabatlarini jamoatchilik ko'rib, qolsa este'fo berilishi kerak. Shuni aytish lozimki korrupsiyaga qarshi kurash, uzluksiz davom etmoqda. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashga rahbarlik bevosita siyosiy rahbarlar va mansabdor shaxslarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi va bu jamoatchilik tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Yurtboshimizning fikricha, sog'liqni saqlash ta'lim, bank bojxona, sud, prokratura, ichki ishlar kommunal xizmat sohalarida, shuningdek fuqorolarni ishga qabul qilishda korrupsiya keng tarqalgan. Mamlakatimiz ham mazkur muammodan xalos bo'lmagan. Dunyodagi korrupsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi yilda pog'onaga ko'tarilgan bulsada hali bu illat barham topmagan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mustaqil organlar tashkil etilganligi dunyo tajribasida ham ko'rishimiz lozim. Xususan Singapur, Korea Hindiston kabi davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi alohida ixtisoslashtirilgan organlar tashkil etishda hatto tajribaga ham egalar. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonuni 2017 -yil 4-yanvarda kuchga kirdi. Ushbu qonun va kodeksdagi taalluqli moddalarga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan pora berib o'z tomoniga og'dirish ozodlikdan mahrum qilish yoki jarimalar solish bilan jazolanadi. Poraxo'rlik yoki korrupsiya bilan bogliq jinoyatda ayblanish, buyuk kelajak uchun jiddiy obru e'tibor va moliyaviy oqibatlariga olib keladi. Poraxo'rlik ham korrupsiyaning bir turi hisoblanadi. Pora berish deganda mansabdor shaxsning o'z xizmati mavqeyidan foydalangan holda sodir etilishi lozim bo'lgan yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatini ko'zlab bajarilishi yoki bajarilmasligi evaziga unga bevosita yoki vosita orqali moddiy



qimmatliklar berish yoki mulkiy manfaatdor etish tushuniladi. Pora har doim ham naqd mablag'lari berilishini anglatmaydi. Agar qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan bo'lsa sovg'alar mehmon do'stlik harakatlari va vaqtichoqlik taqdim qilishlari ham pora bo'lishi mumkin.

Korrupsiyani oldini olish va butkul barham berish-bu barcha davlatlarning vazifasi va bu sohadagi sa'y harakatlar samaradorligini ta'minlash uchun fuqorolik jamiyati nohukumat tashkilotlar va jamoalar negizida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar kabi ommaviy sektor doirasidan tashqarida alohida shaxslar va guruhlar ko'magi va ishtirokida bir biri bilan hamkorlik qilishlari lozimligini hisobga olib, kamida ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni tegishli darajada boshqarish, shuningdek, korrupsiyani rad etadigan madaniyatni shakllantirishga ko'maklashish tamoyillarni inobatga olib, jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov va unga qarshi kurashish sohasida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvand moddalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining ishiga yuqori baho beradi. Xususan O'zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 29-iyundagi PF 6013 sonli O'zbekiston respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi farmoni qabul qilinib mazkur farmoni asosida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni tizimini sabab va shart sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;





ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi hokazo. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlash. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi (bundan buyon matnda Idoralararo komissiya deb yuritiladi) tashkil etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi..Shuni ta'kidlash lozimki, korruptsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga ,xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ,madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohatlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.





Korrupsiya — bu davlat organlari yoki xususiy sektordagi mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini shaxsiy manfaatlar uchun suiiste'mol qilishidir. Korrupsiya tizimli muammoga aylangan davlatlarda, odatda, iqtisodiy o'sish sekinlashadi, davlat resurslari samarali taqsimlanmaydi, va fuqarolarning ishonchi kamayadi.

Korrupsiyani kamaytirish uchun bir qancha choralar mavjud: qonunlarni kuchaytirish, mansabdor shaxslarning faoliyatini shaffof qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurashish.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, va unga qarshi kurashish barcha fuqarolar va davlatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Korrupsiya faqat davlat idoralarida emas balki jamiyatning barcha qatlamlarida keng tarqalgan bo'lib uning oldini olish uchun keng qamrovli choralar va ongli jamiyat zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev B.A. Muxtorov, Norov T O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi o'quv qo'llanma TDIY 2022
2. Korrupsiya va ijtimoiy hayot Ochilova BJizzax 2022
3. Birlashgan Millatlar Tsshkilotining korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh. O'RQ-419-son, 2017-yil 3-yanvar.

